QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I

13 oktabr 2026 yil **304I-sonli** **Qarshi sh.**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 9-oktabrdagi 417-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-sentabrdagi “Pedagoglarning davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirgan va tahsil olayotgan farzandlarining to‘lov-kontrakt summasiga chegirma berish va ehtiyojmand oila farzandlarini zamonaviy kasblarga o‘qitish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 501-son qarorida belgilangan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 9-oktabrdagi 417-sonli buyurug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-sentabrdagi “Pedagoglarning davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirgan va tahsil olayotgan farzandlarining to‘lov-kontrakt summasiga chegirma berish va ehtiyojmand oila farzandlarini zamonaviy kasblarga o‘qitish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 501-son qarori (keyingi o‘rinlarda -Qaror) hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 9-oktabrdagi 417-sonli buyurug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Faoliyat turi bo‘yicha barcha prorektorlar, bosh hisobchi, Registrator ofis boshlig‘i, bo‘lim boshliqlari va fakultet dekanlariga:

pedagoglarning farzandlari tomonidan to‘lov-kontrakt shartnomasini olish uchun “Talabalarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish axborot tizimi” (maxsus axborot tizimi) orqali yuborilgan arizalarni belgilangan tartibda “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali olingan elektron ma’lumotlar asosida belgilangan tartibda tekshirish, mazkur nizom talablari asosida shartnomani shakllantirish hamda ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, to‘liqligi va shaffofligini ta’minlash, bunda:

mazkur chegirmani har bir farzand uchun alohida hamda bir o‘quv yili davomida bir marta qo‘llash;

mazkur qarorda nazarda tutilmagan toifadagi talabalar, jumladan, nodavlat va xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari, oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim tashkilotlari, qo‘shma ta’lim dasturlari, shuningdek, qo‘shimcha va

tabaqalashtirilgan to‘lov kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga mazkur chegirmaning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik va ushbu talabning bajarilishini qat’iy nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

3. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (M.Mansurov), bosh hisobchi (J.Rahimov) va Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Xolbayev)larga:

pedagoglar farzandlariga o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt summasiga 30 foiz miqdorida beriladigan chegirmani qoplab berish uchun pedagoglar farzandlarining ro‘yxatiga muvofiq hisob-kitoblarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuborish;

pedagoglar farzandlari uchun ajratilgan budjet mablag‘larini budjetdan tashqari (to‘lov-kontrakt) mablag‘lari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisob varag‘iga o‘tkazish, so‘rovnomada shakllantirilgan ro‘yxat asosida tegishli talabalarga biriktirish hamda mablag‘lardan belgilangan tartibda foydalanishni ta’minlash;

elektron tarzda yuborilgan arizalarni 2 kun muddatda “Raqamli hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasidan olingan ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqish va shartnomani shakllantirish;

4. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (O.Kuziyev), O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori (Sh.Davronov), O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i (A.Rajabov)larga:

joylashuvi bo‘yicha hududning ehtiyoji, yoshlarning qiziqishlari, kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari hamda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda ehtiyojmand oila farzandlari uchun dasturlash, sun’iy intellekt, robototexnika, IT va boshqa kasblarga o‘qitish maqsadida universitet huzurida yuridik maqomga ega bo‘lmagan O‘quv markazini (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tashkil etish choralarini ko‘rish;

mavjud Markazlarni yangi kurslar tashkil etish orqali takomillashtirish;

Markazlarda tashkil etilgan kurslarning dasturlarini “Qo‘qon universiteti tajribasi”dan kelib chiqib, bugungi mehnat bozorining talablariga muvofiq ishlab chiqilishini ta’minlash;

Markaz faoliyati hamda unda tashkil etilgan kurslarga hududdagi ehtiyojmand yoshlarni jalb qilish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish;

Pedagog farzandlariga to‘lov-kontrakt summasiga 30 foiz miqdorida beriladigan chegirma summasini to‘liq qoplab berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar universitetning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash vazifalari yuklansin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (M.Mansurov), bosh hisobchi (J.Rahimov) va Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Xolbayev)larga:

belgilansinki, mazkur buyruq bilan universitetning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan Markazni tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq xarajatlarni hamda ehtiyojmand oilalar farzandlarini bepul o‘qitish, jumladan, o‘quv jarayoniga jalb qilinadigan professor-o‘qituvchilarning oylik ish haqi (soatbay haq to‘lash asosida) xarajatlarini belgilangan tartibda qoplashga ruxsat beriladi.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: WC86566535

6. Mazkur vakolatlarni amalga oshirishda faoliyati xususiyatidan kelib chiqib mas’ullar qonunchilik hujjatlariga qat’iy rioya qilishlari ta’minlansin.

7. Ushbu buyruq bandlari bo‘yicha edo.ijro.uz. tizimi orqali mas’ullarni belgilash va o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i B.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor M.Mansurov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor **D.Nabiyev**

PWX3297

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: HP41871095

Qarshi davlat universitetining pedagog xodimlarni farzandlari tomonidan yuborilgan arizalarni qabul qilish, mezonlarga muvofiqligini tekshirish va moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun komissiya

TARKIBI

№	F.I.Sh	Lavozimi
1	Davronov Shohjahon Rizamat o‘g‘li	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, komissiya raisi
2	Mansurov Mansur Alisherovich	Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, raisi o‘rinbosari
3	Ismatillayev Jasurbek Anvarovich	Registrator ofis boshqarma boshlig‘i, komissiya a’zosi
4	Fayziyev Zohiddin Xasanboyevich	Tillar fakulteti dekani, komissiya a’zosi
5	Rahimov Jasurbek Abduraxmanovich	Universitet bosh hisobchisi, komissiya a’zosi

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **Sh.Davranov**